


U.TO'LAKOV, O. MAXMUDOV, S.TO'LAYEV

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARGA SOLIQ SOLISHNING XUSUSIYATLARI



Yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq solishning xususiyatlari: yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va faoliyatni boshlamoqchi bo'lganlar uchun risola / U. To'lov, O. Maxmudov, S. Tulayev.

Mazkur risola Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2018-yil 25-maydagi yig'ilishida tasdiqlangan va 5-sonli bayonnoma bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

O.Xatamov - iqtisod fanlari doktori, professor

M.Xudoyberdiyev - Termiz shahar DSI kameral nazorat bo'limi boshlig'i

Tadbirkorlik qadimdan insonlar uchun o'z hayotini qurish, mustaqil ro'zg'or yuritish, tashabbuskorlik bilan mehnat qilib, oilasini, elu yurtining ravnaqini ta'minlash omili bo'lib kelgan. Qolaversa, ishbilarmonlik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan ezgu fazilatdir. Ota-bobolarimiz o'z yeri, mulki, kasbu hunariga ega bo'lishgan. Shu o'rinda Sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", degan teran ma'noli da'vatini eslash kifoya.

Bugungi kunda tadbirkorlik - jismoniy shaxslar tomonidan, asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlik shaklida amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'lib, garchi bunday tadbirkorlik faoliyati chetdan qaraganda oddiy shakl sifatida namoyon bo'lsada, lekin ushbu faoliyatni amalga oshirishning ham ayrim tashkiliy va huquqiy jihatlari bo'yicha turli munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu risolada yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatni tashkil etishdan boshlab, soliq to'lash shakli va usullari, soliq hisobotlarini yuritish tartiblari, ularga berilgan soliq imtiyozlari, soliq nazorati va ko'riladigan choralar, faoliyatni tugatishgacha bo'lgan tartibotlar nazariy va amaliy jihatdan keng yoritib berilgan.

Risolani tayyorlashda "NORMA" – elektron axborot-huquqiy tizimlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Kirish

Ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati soliq nazorati o'rnatilgan holda amalga oshirilishi lozim. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs bo'lgan holda yuritish mumkin. Har bir shaklning - yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs – o'ziga yarasha qiyinchiliklari va afzalliklari bor. Yuridik shaxs tashkil etish uchun malakaviy yordam va bilim zarur bo'lgani uchun, tadbirkorlik faoliyatini jismoniy shaxs sifatida yakka tartibda tadbirkorlik bilan boshlash ma'qul.

O'zbekistonda yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan jismoniy shaxslarga davlat tomonidan bir qator qulaylik va imtiyozlar belgilab berilgan.

Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat olib borish jarayonida tadbirkorlarda ularni faoliyatini soliqqa tortish bo'yicha bir qator savollar yuzaga kelishi tabiiy holdir. Chunonchi, yakka tartibdagi tadbirkor o'zi kim? Uni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qanday? Uning faoliyati soliqqa tortilishi tartibi qanday? Qanday imtiyozlar va majburiyatlar mavjud?

Keyingi o'rinlarda ushbu masalalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortish xususiyatlari yuzasidan aniqlik kiritishga harakat qilamiz.

Yakka tartibdagi tadbirkor.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 18- moddasiga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.

Lekin, agar siz hunarmand - yakka tartibdagi tadbirkor sifatida (yakka tartibdagi tadbirkor bo'lib ro'yxatdan o'tib va Hunarmand Uyushmasiga a'zo bo'lib)

hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirsangiz, unda siz tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun shogirdlarni jalb etishingiz mumkin¹.

Agarda siz oila a'zolaringiz bilan birga faoliyat yuritmoqchi bo'lsangiz, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, yakka tartibdagi faoliyatning oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshirishingiz, shuningdek oila a'zolaringizni birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, deb oila a'zolari ko'rsatib o'tishingiz zarur.

Shu bilan bir qatorda, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan doimiy xodimlar yollashga yo'l qo'yilmaydi².

Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari

Yakka tartibdagi tadbirkorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati»dagi faoliyat turlarini amalga oshirishlari lozim.

Ular:

3-jadval

Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati²

T/r	Faoliyat turining nomi
I.	Chakana savdo:
1.	Oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (o'simlik moyi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotishdan tashqari)
2.	Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chakana sotish

¹ O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni 6 moddasi ² Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 4 va 8 xatboshi

² Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qaroriga 1-ilova Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati

3.	Nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
3-1.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (turg'un shoxobchalarda aralash savdo qilish)
5.	Tovarlarini import qilish va chakana sotish
II.	Qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati.
III.	Maishiy xizmatlar, II bo'limda nazarda tutilganlaridan tashqari:
6.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar
7.	Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek dazmollash xizmatlari
8.	Gilam va gilam buyumlarini ta'mirlash va tozalash
9.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni, to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash va tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalari tikish, trikotaj buyumlarni to'qish
10.	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
11.	Yakka buyurtmalar bo'yicha poyabzal tayyorlash va tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
12.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash

T/r	Faoliyat turining nomi
13.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash
14.	Kalitlar tayyorlash
15.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
16.	Motam gulchambarlari, sun'iy ranglar, girlyand tayyorlash
17.	To'siqlar, haykallar, metallardan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
18.	Yog'ochdan (mebeldan tashqari) va alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash.
19.	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokazo inventar) ta'mirlash va tayyorlash

20.	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
21.	Mebelni yig'ish va ta'mirlash
22.	Musiqa asboblarini ta'mirlash va sozlash
23.	Yakka buyurtma bo'yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek zargarlik buyumlarini ta'mirlash
24.	Optika, soatlarni ta'mirlash va o'ymakorlik ishlari
25.	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini ta'mirlash, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish
26.	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signallarini ta'mirlash va o'rnatish, yuvish, tekislash, kuzovga himoya va bezak qoplamalari qoplash, salonni tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar)
27.	Sanitariya-texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28.	Shisha va oynalarni qirqish, shishaga badiiy ishlov berish
29.	Binolarga oyna o'rnatish xizmatlari
30.	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
31.	Hammom va sauna xizmatlari
32.	Turarjoylarni yig'ishtirish xizmatlari
33.	Hovlilar va bog'larga qarash xizmatlari, shuningdek ko'kalamzorlashtirish ishlari
34.	Bog'lar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish
35.	Videoga olish va fotosuratga olish xizmatlari
35-1.	Xo'jalik mollari va uy-ro'zg'or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo'jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
IV.	Faoliyatning boshqa turlari:

T/r	Faoliyat turining nomi
36.	Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlari, pop-korn, frezerda muzqaymoq, salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda o'tirish joylari tashkil etmasdan donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash
37.	O'lchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
38.	Qurilish, ta'mirlash va bezash bo'yicha alohida ishlarni bajarish (kapital qurilish, qurilishmontaj ishlari bo'yicha yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishdan tashqari)

39.	Repetitorlik xizmatlari
40.	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
41.	Bolalarning o'yinchoq avtomatlari bilan bog'liq xizmatlar
42.	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta'mirlash va ulardan foydalanish
43.	Dizayn bo'yicha xizmatlar (grafik, interer, mebel va hokazolar), shuningdek chizmachilikgrafika ishlari, shuningdek rassomlik san'ati
44.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o'yinlarini tashkil etish, shuningdek kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko'paytirish bilan bog'liq xizmatlar
45.	Tashrif qog'ozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
46.	Muqovalash ishlari
47.	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
48.	Sug'urta agentlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar
50.	Kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish
51.	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)
52.	Ko'ylak va kostyumlarni, shuningdek ularga aksessuarlarni prokatga berish
53.	Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)
54.	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
55.	To'garaklar tashkil etish va yuritish
56.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
57.	Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari
58.	Mol so'yish xizmatlari
59.	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
60.	Veterinariya faoliyati
T/r	Faoliyat turining nomi
61.	Yuklarni avtomobil transportida tashish
62.	Yo'lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
63.	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyorlangan dorivor xom ashyoni yetishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish
64.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish
65.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish

66.	Shisha idishlar va ikkilamchi xom ashyoni qabul qilish xizmatlari (metall chiqindilaridan tashqari)
67.	Rieltorlik faoliyati
68.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus texnikadan (traktorlar, avtokranlar, buldozerlar, ekskavatorlar va boshqalardan) foydalangan holda xizmatlar ko'rsatish
69.	Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish
70.	Matritsali printerlar va alfavit-raqam yozadigan qurilmalar uchun bo'yovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishlash
71.	Qog'ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
72.	Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provayderlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish (abonentlar yoki xizmatlar ko'rsatuvchilarga ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilarning xizmati uchun to'lovlarni qabul qilish)
73.	Tashqilotlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari (xom sut, sabzavotlar, mevalar, asal, teri va mo'yna) tayyorlash bo'yicha xizmatlar
74.	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
75.	Ekskursiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha turizm faoliyati

Izoh.

Agar yakka tadbirkor faoliyatning asosiy turiga nisbatan yordamchi hisoblangan faoliyatni amalga oshirsa, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning bir turi uchun to'lanadi.

Ushbu Ro'yxatga kiritilgan faoliyat turlari yuridik shaxs shaklidagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu Ro'yxat doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradigan xususiy tadbirkorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

Shuningdek, hunarmandchilikning asosiy quyidagi faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu faoliyat turlarini «Hunarmand» uyushmasiga a'zo bo'lgan holda amalga oshirishlari mumkin.

**Hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari, hunarmandlar
tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar va tovarlar
(ish, xizmat ko'rsatish) turlarining
RO'YXATI³**

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Mahsulotlarning asosiy turlari	Shogirdlar sonining miqdori
1.	Ganch o'ymakorligi	Qandillar, devor shamdonlari, ko'zgu, naqshlar, stalaktitlar, muqarnas (friz), karnizlar, ustunlar elementlari, panjaralar, haykalchalar, panno, shift va devor bezaklari va asoslari, ganchdan yasalgan arxitektura va qurilish elementlari, boshqa amaliy bezak mahsulotlari.	5
2.	Qo'lda gilam to'qish	Gilam va gilamchalar, paloslar, xurjunlar, kigiz buyumlar, sholchalar, joynamozlar, o'tovlar, tabiiy toladan tayyorlangan buyumlar.	10
3.	Qo'lda gazlamalar to'qish	Atlas, beqasam, adras, salla, tabiiy ipak, ip kalava, jun va sun'iy ipdan to'qilgan gazlamalar.	10
4.	Tosh o'ymakorligi	Toshdan tayyorlangan esdalik buyumlar, mayda plastikalar, qutichalar, yozuv anjomlari, shamdonlar, panno, releflar va kontrreleflar, bareleflar, geroldika va ramzlar, toshni pardozlash yo'li bilan tayyorlangan bezaklar va boshqa bezak buyumlar.	5

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Mahsulotlarning asosiy turlari	Shogirdlar sonining miqdori

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda PF-5242-son Farmoniga 2-ilova

5.	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo'yoqli naqshlar	Lok miniatyurasi texnikasida tayyorlangan buyumlar: qutichalar, suratlar; devor, qog'oz mato, teri, gazlama, pape-mashe, yog'och, qovoq, karton, suyak va emaldagi naqshlar va rasmlar; xattotlik uslubida tayyorlangan qo'lyozmalar, kitoblar, miniatyura va tasviriy san'at asarlari, risolalar va boshqa hunarmandchilik buyumlari; muqovalash.	10
6.	Kandakorlik, misgarlik buyumlari	Mis, latun, alyuminiydan yasalgan buyumlar (choynak, qumg'on, lagan, guldor, shuningdek bezash va amaliy maqsadlar uchun mo'ljallagan boshqa buyumlar).	10
7.	Metalldan yasalgan buyumlar	Qo'lda yasalgan metall buyumlar: eshiklar, naqshli darvozalar, panjaralar, deraza va eshik tutqichlari, ilgaklar, qo'ng'iroqlar, zanjirlar, shamdonlar, ketmonlar, teshalar, xaskash, panshaxalar, omochlar, barcha turdagi milliy qilich, xanjar va pichoqlar, ommaviy ishlab chiqariladigan metall buyumlar.	5
8.	Tunukadan yasalgan buyumlar	Qo'lda yasalgan tunuka buyumlar: guldor va jimjimador tarnov va quvurlar, oshxona anjomlari (oshpichoq, kapkir, cho'mich, chovli, elak, mantiqasqon va boshqalar), uy-ro'zg'or buyumlari (kiyim va parda ilgichlar, qo'l yuvgich, tutqichlar, soyabonlar) va boshqalar.	5
9.	Milliy poyabzal tayyorlash	Qo'lda va yakka tartibda tikilgan milliy poyabzallar, teridan mahsi va kovushlar, kirza va kigiz etiklar, sandallar, shippaklar, tuflilar.	10
10.	Milliy liboslar tayyorlash	Chopon, yaxtak, nimcha, bolalar choponlari, to'y liboslari va boshqa milliy kiyimlar.	10
11.	Bosh kiyimlar tayyorlash	Do'ppi, telpak, salla, shuningdek mo'yna, qorako'l, teri va qo'lda ishlov berilgan materiallardan tikilgan boshqa bosh kiyimlar.	10

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Mahsulotlarning asosiy turlari	Shogirdlar sonining miqdori
-----	---------------------	--------------------------------	-----------------------------

12.	Yog'och o'ymakorligi	Yog'och o'ymakorligi uslubida bajarilgan barcha amaliy-bezak san'at turlari.	10
13.	Suyakka o'yima naqsh solish	Esdalik sovg'alari, mayda haykalchalar, netske, qutichalar, pichoq, qilich, xanjar soplari, suyakdan bezak bergan holda tayyorlangan boshqa amaliy bezak mahsulotlari.	5
14.	Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar	Turli xil matolarga gul bosish usulida tayyorlangan buyumlar: «batik», milliy ko'rpa va ko'rpachalar, yostiqlar, belbog'lar, jiyaklar, sumkalar, tasmalar, bolalar kiyimlari va boshqa chokli hunarmandchilik buyumlari.	10
15.	Kashtachilik	Kashtachilik va to'qilgan buyumlar, shuningdek, qo'lda tayyorlangan bosh kiyimlar qismlari (kashta mashina yordamida ham tayyorlanishi mumkin).	10
16.	Zardo'zlik buyumlari	Metall iplardan foydalangan holda zardo'zlik uslubida tayyorlangan barcha hunarmandchilik mahsulotlari.	10
17.	Musiqa asboblari	Ishlab chiqarishdan tashqari usulda tayyorlangan barcha turdagi milliy musiqa asboblari.	5
18.	Chinni, fayans va sopol buyumlari	Chinni, fayans va sopoldan tayyorlangan amaliy-bezak san'atining barcha turlari, arxitektura-bezak elementlari; chinni, fayans va sopol buyumlarini naqsh va trafaret bilan bezash, loydan tayyorlangan uy va oshxona buyumlari, tandirlar.	10
19.	Qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlari	Qonunchilikka muvofiq tamg'alanishi shart bo'lgan probali oltin, kumush, platina va platina guruhidagi metallardan ijodiy, mualliflik va milliy uslubda yasalgan buyumlar.	10
20.	O'yinchoqlar	Yog'och, metall, gips, mato, sopol va boshqa materiallardan ishlab chiqarishdan tashqari sharoitda yasalgan o'yinchoqlar.	10

T/r	Asosiy yo'nalishlar	Mahsulotlarning asosiy turlari	Shogirdlar sonining miqdori
------------	----------------------------	---------------------------------------	------------------------------------

21.	Mayda haykaltaroshlik buyumlari	Tabiiy va sun'iy materiallar (gips, shamot, mis, bronza, alyuminiy, suyak, yog'och, tosh, sopol, chinini, fayans, va boshqalar)dan yasalgan barcha turdagi haykaltaroshlik buyumlari.	10
22.	Charm mahsulotlari	Egar-jabduq anjomlari, shu jumladan ular uchun arqon, belbog', qayish anjomlar, tabiiy va sun'iy charmdan tayyorlangan milliy nimcha va bosh kiyimlar, charmdan tayyorlangan esdalik buyumlari va boshqalar.	10
23.	Mualliflik mebellarini tayyorlash	Amaliy-bezak san'ati predmetlariga kiradigan mebel (to'plamlari va alohida qismlari).	5
24.	Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi mahsulotlari	Oshxona anjomlari (o'qlov, tuzdon, non quti, juva, keli, osh taxta, chaqich), yog'och, faner va laminatdan tayyorlangan turli hunarmandchilik mahsulotlari, belanchaklar, bolalar aravachasi, beshik va uning anjomlari, turli xontaxtalar, sandiq, jovon, eshik, rom, bezakli reykalari, surat uchun romlar (baget), tokarlik uskunasiidan tayyorlangan har xil shaklli hunarmandchilik mahsulotlari, yog'och shaxmat taxtasi va donasi, panno, yog'ochdan qo'lda va kichik mexanizatsiya vositalari yordamida yasalgan boshqa buyumlar.	5
25.	Pechka va kaminlar yasash	Pechkalar, kaminlar, shu jumladan ular uchun havo so'rish qurilmalari.	5
26.	Novdalardan buyumlar to'qish	O'simlik novdalaridan to'qilgan buyumlar (qamish, tol, poxol, tok novdalari va boshqa har xil daraxt novdalari).	10
27.	Mozayka ishlari	Devor va shift mozaykalari, tabiiy va sun'iy materialdan mozayka pannolari tayyorlash.	5
28.	Ko'zgu tayyorlash	Ko'zgu va ko'zgu sirlari tayyorlash.	5
T/r	Asosiy yo'nalishlar	Mahsulotlarning asosiy turlari	Shogirdlar sonining miqdori

29.	Shisha puflash ishlari	Badiiy puflash asosida ishlangan bra, mayda plastiklar, esdalik buyumlari, taqinchoqlar.	5
30.	Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar	Tabiiy va sun'iy materiallardan quyma uslubda ishlangan buyumlar, shuningdek (murakkab mexanizm va mashinalardan foydalanmagan holda) mis, bronza, cho'yan, alyuminiydan qo'lda quyma uslubda ishlangan mahsulotlar.	5
31.	Soatsozlik	Devorga osiladigan eksklyuziv, polda turadigan, kamin va qo'l soatlari tayyorlash, soat mexanizmlarini ta'mirlash.	5
32.	Emallash ishlari	Emal qoplamali buyumlarni tayyorlash, emal qoplamalarini ta'mirlash va tiklash.	5
33.	Esdalik buyumlari	Turli tabiiy va sun'iy materiallardan har xil rangda tayyorlangan esdalik va sovg'a buyumlari; kamar, nishonlar, tasbeh, guldastalar, floristika, ikebana va boshqa buyumlar.	10
34.	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan taqinchoqlar	Oddiy metallardan milliy uslubda tayyorlangan barcha taqinchoqlar (tumorlar, ziraklar, zebugardon, bilaguzuk, uzuk, tillaqosh va boshqalar).	10

Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.

Jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT) sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir. U yuridik shaxsni tashkil etmasdan amalga oshiriladi⁴.

Ilgari YaTT faqat mustaqil ravishda tadbirkorlik bilan shug'ullanishga haqli edi. 2015 yil 1 iyuldan boshlab u faoliyat turidan kelib chiqqan holda 1 nafardan 3 nafargacha ishchini yollash huquqini qo'lga kiritdi⁵.

YaTTni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi quyidagilar bilan belgilangan:

⁴ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 24-moddasi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PF-4725-son Farmonning 5-band

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom⁶ (66-son Nizom);

Tadbirkorlik sub'ektlarining yagona davlat reestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom⁷ (66-son Nizomga 2-ilova).

Barcha tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish tadbirkorlik sub'ektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari Tadbirkorlik sub'ektlari yagona davlat reestriga kiritilishini anglatadi.

YaTT quyidagicha ro'yxatdan o'tishi mumkin:

Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali⁸da (YaIDXP). Bunday ro'yxatdan o'tish uchun tumandagi (shahardagi) istalgan DSIga murojaat qilib, oldindan elektron raqamli imzo (ERI) olish lozim; tuman (shahar) "yagona darcha" markaziga *o'zi kelgan holda* murojaat qilish.

"Yagona darcha" markazlari sayti⁹da ro'yxatdan o'tish bo'yicha videoy'oriqnoma bilan tanishish mumkin.

YaTTni davlat ro'yxatidan o'tkazish SXEMASI

1-bosqich	Ariza beruvchi (YaTT)	1. So'rovnoma Internet orqali rasmiylashtirilganda: so'rovnomaning tegishli ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron shaklda rasmiylashtirish (66-son Nizomga 4ilova); davlat bojini to'lash. 2. Doimiy ro'yxatda turgan joyidagi yoxud doimiy yashash joyidagi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelib murojaat qilinganda: davlat bojini to'lash; tegishli qog'oz hujjatlarning asl nusxalarini 1 nusxada taqdim etish;	Bajarish muddati - ariza beruvchining xohishiga ko'ra (real vaqt rejimida)
-----------	--------------------------	--	---

⁶ Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qaroriga 1-ilova

⁷ Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qaroriga 2-ilova

⁸ www.my.gov.uz

⁹ www.fo.birdarcha.uz

		ro'yxatdan o'tkazuvchi organning xodimi bilan birgalikda arizani to'ldirish	
2-bosqich	Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtiril gan tizimi	1. Ma'lumotlarni tekshirish, tadbirkorlik sub'ektining noyob identifikatorini berish. 2. Ma'lumotlarni Tadbirkorlik sub'ektlari yagona davlat reestriga kiritish. 3. Ariza beruvchini tadbirkorlik sub'ekti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida xabardor qilish.	Bajarish muddati - real vaqt rejimida (ariza topshirilgan paytdan boshlab 30 minutdan oshmagan vaqtda)

Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun YaTT belgilangan stavkalarda davlat bojini to'lashi kerak (*66-son Nizomga 2-ilovaning I bo'limi*). Bunda Internet orqali ro'yxatdan o'tish 2 baravar arzon tushadi: o'zi kelganda - EKIHNing 1 baravari;

Internet orqali - EKIHNing 0,5 baravari.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organga murojaat qilingan kundagi EKIHNing hisobga olinadi.

Davlat bojini quyidagicha to'lash mumkin: banklar kassasida (naqd pul bilan yoki plastik karta vositasida); bank orqali o'z schyotidan pul o'tkazish yo'li bilan; elektron to'lov tizimlari yordamida.

Davlat boji to'lanib, ariza beruvchi taqdim etgan ma'lumotlar tekshirilgandan keyin u haqdagi ma'lumotlar Tadbirkorlik sub'ektlarining yagona davlat reestriga kiritiladi. So'ngra elektron ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma (*66-son Nizomga 6-ilova*) shakllantiriladi. Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga havola (giperhavola) shaklidagi xabarnoma YaIDXPdagi tadbirkorlik sub'ektining shaxsiy kabinetiga, shuningdek so'rovnoma ko'rsatilgan elektron pochta manziliga jo'natiladi. YaTT havola orqali o'tib, ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasini qog'ozga chiqarib olishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi bilan bir vaqtda YaTT soliq organlari va statistika organlarida hisobga qo'yiladi. Shu sababli ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) ko'rsatiladi, YaTT ushbu organlarda alohida hisobda turishi kerak emas.

Qachon qayta ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'ladi Quyidagi

hollarda YaTTni qayta ro'yxatdan o'tkazish zarur:

faoliyatni amalga oshirish joyi o'zgarganda - o'zgargan paytdan boshlab 10 kun ichida; ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari, shu jumladan faoliyat turi, yo'nalishi o'zgarganda (unga qo'shimcha kiritilganda) - o'zgargan paytdan boshlab 30 kun ichida.

Qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza (66-son *Nizomga 8-ilova*) rasmiylashtiriladi, uni ko'rsatilgan muddatlarda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etish zarur.

Qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojini to'lash zarur (66-son *Nizomga 2ilovaning II bo'limi*). Uning miqdori ariza berish usuliga bog'liq:

o'zi kelganda - davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan stavkaning 50%i, ya'ni EKIHning 0,5 baravari;

Internet orqali - davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan stavkaning 25%i, ya'ni EKIHning 0,125 baravari.

Bunda ham ro'yxatdan o'tkazuvchi organga murojaat qilingan kundagi EKIH hisobga olinadi.

Bank hisobraqami qanday ochiladi

Davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng YaTT hisobraqamni ochish uchun bankka murojaat qiladi.

Bank hisobraqamlarini ochish tartibi O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi yo'riqnoma¹⁰ bilan belgilangan.

YaTT o'ziga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydi. U milliy (shu jumladan ikkilamchi) va chet el

¹⁰ Adliya Vazirligi tomonidan 2009 yil 27 aprelda 1948-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan yo'riqnoma

valyutasidagi schyotlarni ochishi mumkin. Milliy valyutadagi ikkilamchi schyotni asosiy schyot ochilgan bankda ochish taqiqlanadi.

Schyot ochish uchun YaTT bankka quyidagilarni taqdim etadi:

schyot ochish to'g'risida ariza¹¹;

2 nusxada imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha¹². YaTTda dumaloq muhr bo'lmasa, faqat o'z imzo namunasini taqdim etadi. Imzo o'z qo'li bilan qo'yiladi (faksimile qo'llashga yo'l qo'yilmaydi);

YaTTning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat). Ushbu hujjatdan nusxa olinadi, asli esa qaytarib beriladi.

Bankka YaTT ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasini yoki nusxasini taqdim etish talab etilmaydi. Schyot ochish va YaTTni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni (shu jumladan uning STIRni) bank Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimidan oladi.

Mijoz hujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab bank 2 ish kuni ichida schyotni ochadi. Keyingi kundan kechiktirmay, bank soliq organlarini YaTT schyot ochganligi to'g'risida xabardor qiladi¹³.

Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan manzil YaTTning yuridik manzili hisoblanadi. Ushbu manzil o'zgarsa, YaTT bu haqda bankni 5 bank kuni ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Milliy valyutadagi bank schyotlarini ochganligi uchun YaTTdan kichik tadbirkorlik sub'ekti sifatida haq undirilmaydi¹⁴. Valyuta schyotlarini ochganlik uchun qonun hujjatlarida EKIHning 0,5 baravari (qishloq joylarda - EKIHning 0,1 baravari) miqdorida haq to'lanishi nazarda tutilgan, aslida amaliyotda aksariyat banklar schyotlarni bepul ochadilar.

¹¹ 1948-son Yo'riqnomaga 2-ilova

¹² 1948-son Yo'riqnomaga 3-ilova

¹³ Soliq kodeksining 84-moddasi 10-qismi

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasi

O'z schyotlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni byudjetga to'lash chog'ida YaTTdan kichik tadbirkorlik sub'ekti sifatida bank xizmatlarini ko'rsatganlik uchun haq undirilmaydi.

YaTTga mehnat daftarchasi berish va uni yuritish tartibi

YaTTga mehnat daftarchasi berish va uni yuritish, shuningdek mehnat stajini hisobga olish tartibi quyidagi hujjatlar bilan belgilangan:

Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to'g'risida yo'riqnoma¹⁵;

Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom¹⁶;

Chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizom¹⁷.

2019 yil 1 yanvardan boshlab respublikamizda "Elektron mehnat daftarchasi" tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Birinchi marta ishga kirayotgan xodimlarga qog'oz shaklidagi mehnat daftarchalari berilmaydi. Joriy yilning 1 yanvaridan boshlab YaTTning mehnat stajini elektron hisobga olishga o'tkazish nazarda tutilgan edi¹⁸. Biroq bunday o'tish hali yakuniga yetkazilmadi.

Mehnat faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkorlikdan boshlayotgan shaxslarga mehnat daftarchalarini hozircha doimiy yashash joyidagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari rasmiylashtirmoqda. Mehnat daftarchasini (yoki uning dublikatini) berganlik uchun YaTTdan EKIHNing 10%igacha miqdorda haq undiriladi. YaTT boshqa ishga joylashguncha yoki uning yashash joyi o'zgargan, unga pensiya tayinlangan, yakka tartibdagi mehnat faoliyati tugatilgan taqdirda uning mehnat daftarchasi Pensiya jamg'armasi bo'limida saqlanadi. Agar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati jismoniy shaxs uchun qo'shimcha faoliyat hisoblansa, uning mehnat daftarchasi asosiy ish joyida yuritiladi. Biroq uning xohishiga ko'ra Pensiya

¹⁵ Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 29 yanvarda 402-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan yo'riqnoma

¹⁶ Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi 252-son qaroriga 1-ilova

¹⁷ Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 fevraldagi 46-son qaroriga 1-ilova

¹⁸ Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 iyuldagi 462-son qarori 2-bandi

jamg'armasi bo'limi xodimi tomonidan mehnat daftarchasiga YaTT sifatidagi faoliyat davri to'g'risidagi yozuv kiritilishi mumkin.

Pensiya hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan YaTTning mehnat staji va ish haqi Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan sug'urta badallari to'langanligi to'g'risidagi hujjatlar asosida hisobga olinadi. Pensiya miqdori to'langan sug'urta badallari miqdori va ish stajining davomiyligiga bog'liq bo'ladi.

YaTT Pensiya jamg'armasiga to'lagan sug'urta badallari hisobi uning doimiy yashash joyidagi DSI va PJ bo'limida yuritiladi. Buning uchun YaTT Pensiya jamg'armasi bo'limida hisobda turishi shart¹⁹. Sug'urta badallari to'langanligini YaTT maxsus Sug'urta badallari to'lanishini hisobga olish daftarchasida²⁰ qayd etadi. Uni Pensiya jamg'armasi bo'limi ochadi. YaTT xohishga qarab Hisobga olish daftarchasidagi yozuvlarni Pensiya jamg'armasi bo'limida mavjud ma'lumotlar bilan solishtirishi mumkin. Solishtirish natijalari Hisobga olish daftarchasiga kiritiladi hamda YaTT va Pensiya jamg'armasi bo'limi mas'ul xodimlarining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Agar YaTT mehnat daftarchasiga ega bo'lmagan yoki u yo'qolgan bo'lsa, pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish staji faqat to'lov hujjatlari bilan tasdiqlangan Hisobga olish daftarchasidagi yozuvlar asosida hisoblab chiqiladi. Sug'urta badallarini to'lash dalili guvohlar ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

Faoliyat to'xtatilgan yoki doimiy yashash joyi o'zgargan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi YaTT murojaat etgan kuni mehnat daftarchasini qo'liga beradi.

Pensiya tayinlash uchun YaTTning ish stajini hisoblab chiqishda, agar Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallari summasi ushbu yilning barcha oylari uchun belgilangan eng kam sug'urta badallaridan kam bo'lmasa (to'langan penyalarni hisobga olmagan holda), ish stajiga kalendar yil qo'shiladi.

Pensiya miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan aniq bir oy (yil) uchun YaTTning daromadi Pensiya jamg'armasiga to'langan oylik (yillik) sug'urta badali summasini to'lash davrida amalda bo'lgan yagona ijtimoiy to'lov (mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun) va sug'urta badallarining

¹⁹ 46-son Nizomning 19-bandi

²⁰ 46-son Nizomga 5-ilova

qonun hujjatlarida belgilangan umumiy stavkasiga bo'lish hamda olingan natijani 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

MISOL. 2017 yilda YaTT 1 819 765 so'mlik sug'urta badallarini to'lagan, shu jumladan:

yanvar-noyabr uchun - 1 647 525 so'm ($149\,775 \times 11$); dekabr uchun - 172 240 so'm.

2017 yilda kichik biznes korxonalari va fermer xo'jaliklari uchun YaIT stavkasi - 15%, sug'urta badallari stavkasi esa 8%ni tashkil etgan.

YaTT to'lagan sug'urta badallari summasidan kelib chiqilsa, pensiya tayinlashda hisobga olinadigan 2017 yilgi daromad:

$$(1\,647\,525 + 172\,240) / (15 + 8) \times 100 = 7\,912\,022 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan yillik soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan belgilanadi.

Jumladan, 2018 yil uchun belgilangan soliq stavkalari qo'yidagicha:

1-jadval

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq

STAVKALARI²¹

N	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
				Toshkent sh.	Nukus sh., viloyat bo'ysunuv idagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,5	1,0

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari yil boshida - 2018 yil 1 yanvarda belgilangan eng kam ish haqi (172 240 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sifatida qaraladi.

2-jadval

**Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy
belgilangan soliq
STAVKALARI²²**

N	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
		Toshkent sh.	Nukus sh., viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan	7,0	5,0	3,0	2,5
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	3,5	2,5	2,0	1,5
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	3,5	2,0	1,5	0,5
2	Maishiy xizmatlar	2,5	1,5	1,0	0,5
3	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0	0,5
4	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0	0,5
5	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda 3454-sonli qarori.

	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	1,5			
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0			
	12 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0			
N	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)			
		Toshkent sh.	Nukus sh., viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
	12 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,5			

**) Uy xo'jaligi, shu jumladan, dehqon xo'jaligida yetishtirilgan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko'rinishda, manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari, sotish bundan mustasno.*

Soliq solishdan ozod qilish soliq to'lovchi tomonidan mahalliy davlat hokimiyatining tegishli organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjat taqdim etilishi sharti bilan, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, amalga oshiriladi.

Izohlar:

1. *Qat'iy belgilangan soliq stavkalari yil boshida - 2018 yil 1 yanvarda belgilangan eng kam ish haqidani (172 240 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.*

2. *Jismoniy shaxs:*

a) *bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-*

alohida soliq to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joyda to'laydi;

g) I yoki II guruh nogironi bo'lsa, faoliyat turi va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliqni har oyda eng kam ish haqining 50%i stavkasida to'laydi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat turlari amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tegishli faoliyat turi bo'yicha belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yillik hajmda hisoblab chiqarilgan qat'iy belgilangan soliqni bir yo'la undiradilar, bundan jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi dalili aniqlangan sanadan boshlab o'ttiz kun mobaynida uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan holatlari mustasno. Bunday jismoniy shaxsga hisoblab yozilgan yillik qat'iy belgilangan soliq summasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu davr uchun qat'iy belgilangan soliq bo'yicha kelgusidagi soliq majburiyatlari hisobiga o'n ikki oy mobaynida to'lash huquqi taqdim etiladi.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga 8-ilovada nazarda tutilgan eng kam stavka bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Soliq hisoblash tartibi.

Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladi. Soliq Kodeksining 350 moddasiga asosan, yakka tartibdagi tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliq to'lovchi sifatida belgilanadilar.

Qat'iy belgilangan soliq yakka tartibdagi tadbirkorlarga ikki xilda hisoblanadi.

Birinchisi, yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat turi va faoliyatni amalga oshirish joyi uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqib, eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda har oy uchun hisoblanadi.

Ikkinchisi, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga mazkur faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq hisoblanadi. Masalan, bolalar o'yin avtomatlari faoliyati bo'yicha har bir jihozlangan o'rinlar soniga faoliyatni amalga oshirish joyi uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqib, eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda har oy uchun hisoblanadi.

MISOL. *Termiz shahrida yakka tartibdagi tadbirkorning zalida 10 ta o'yin avtomati mavjud. Soliq qanday hisoblanadi?*

Har bir dastgoh soliq solish ob'ekti hisoblanadi va ushbu holatda u 10 taga teng, ya'ni 10 ta o'yin avtomati mavjud.

Ushbu holda to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasi (2018 yil uchun EKIH miqdori 172240 so'm) quyidagicha bo'ladi:

$$172240 \times 2 \times 10 = 3444800 \text{ so'm}$$

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatining bir necha turi bilan shug'ullangan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida hisoblanadi.

Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

MISOL. *Nooziq-ovqat mahsulotlari bilan Termiz shahrida savdo qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkor Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida davlat ro'yxatidan o'tgan.*

Faoliyat turini amalga oshirish joyi uchun belgilangan Soliq stavkalari bilan davlat ro'yxatiga olingan joylar uchun belgilangan stavkalar farq qilganligi bois soliq yuqori stavka o'rnatilgan joy bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Soliq stavkasi:

*Termiz shahri uchun – EKIHning 5 baravari miqdorida;
boshqa shaharlar uchun - EKIHning 3 baravari miqdorida.*

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblang.

Faoliyati Termiz shahrida amalga oshirilayotganligi va soliq yuqori stavkada hisoblanishini inobatga olib, Soliq EKIHning 5 baravari miqdorida hisoblanadi. Soliqning summasi 861200 (172240×5) so'mga teng bo'ladi va davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi soliq organiga, ya'ni Termiz tumani DSIga to'liq miqdorda har oyda to'lab boriladi.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar Soliq kodeksining 311-moddasiga asosan, har oyda eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda sug'urta badallarini majburiy tartibda to'lashlari qayd etilgan.

Agar, yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatining bir necha turi bilan shug'ullansa, unga sug'urta badali har bir faoliyat turi uchun hisoblanmasdan, eng kam ish haqi miqdorida hisoblanadi.

Sug'urta badallari soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, majburiy tartibda quyidagicha to'lanadi:

- 1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda;
- 2) yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) - oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida;

3) yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan: yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan - oyiga

eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; oilaning boshqa a'zolari tomonidan (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan

mustasno) - oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida;

4) qishloq joylarda ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandchilik sub'ektlari - «Hunarmand» uyushmasining a'zolari tomonidan - o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida;

5) «Usta-shogird» maktabi o'quvchilari tomonidan ularning 25 yoshga to'lguniga qadar bo'lgan ish davrida - yiliga eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Bunda dehqon xo'jaligining boshlig'i sug'urta badallarini majburiy tartibda, boshqa a'zolari esa, ixtiyoriylik asosida to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchi hunarmandchilik sub'ektlari - «Hunarmand» uyushmasining a'zolari sug'urta badalini to'lashdan ozod etiladi, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan, yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironi bo'lgan shaxslar uchun esa sug'urta badalining miqdori uning belgilangan eng kam miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq kalendar yil davomida vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga

kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi. Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi: yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga

oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay; yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari tomonidan - hisobot yilining 1 oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash majburiyati quyidagilarning:

yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun - oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish yuritadigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining; yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari uchun - ushbu xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzgan yakka tartibdagi tadbirkorning zimmasiga yuklatiladi.

Soliq kodeksining 373-moddasiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar - foydali qazilmalarni qazib olish bo'yicha faoliyatni amalga oshirganda;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq - suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aktsiz solig'i - aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo'lsalar, ushbu Soliq kodeksning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Soliq hisobotlari.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq idoralariga xisobot taqdim etishlariga to'xtaladigan bo'lsak, Soliq kodeksining 374-moddasiga muvofiq, savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan har chorak yakuni bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, shuningdek, tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan har oy yakuni bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga hisobot taqdim etilishi lozim (taqvimga qarang)

Soliq kodeksining 372-moddasiga muvofiq, Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay; tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Shuningdek, soliq solish ob'ekti o'zgargan taqdirda, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq imtiyozlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llabquvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-sonli farmoniga asosan, 2017 yilning 1 dekabridan boshlab hunarmandchilik sub'ektlari - «Hunarmand» uyushmasining a'zolari:

hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari(tovar, ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotishda qat'iy belgilangan soliqdan ozod etilishi;

yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lovidan ozod etilishi; qishloq joylarda ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan hunarmandlar o'z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badalining 50 foizini to'lashi belgilab qo'yilsin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1754-sonli qaroriga asosan, 2012 yilning 2choragidan boshlab, qishloq joylardagi mahallalar hududida maishiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar (sartaroshlar, tikuvchilar, poyafzal, maishiy texnika ta'mirlash bo'yicha ustalar va boshqalar) 3 yil muddatiga hamda qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi asosida barpo etilayotgan massivlarda kirxona xizmatlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 5 yil muddatiga qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 390-moddasiga asosan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar, mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etilganlar. Soliq kodeksining 375-moddasiga asosan, Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o'n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan e'tiboran qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan olti oy muddatga ozod etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida

davlat ro'yxatidan o'tilgan paytdan boshlab o'n ikki oy ichida faoliyat tugatilgan yoki faoliyat uch va undan ko'p oyga to'xtatilgan taqdirda, qat'iy belgilangan soliq faoliyat amalga oshirilgan butun davr uchun to'lanadi. Soliq kodeksining 374-1-moddasiga asosan, esa yakka tartibdagi tadbirkor yakka tartibdagi tadbirkorning kasb-hunar kolleji bitiruvchisi bo'lgan xodimi uchun qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ushbu xodim kollejini tamomlaganidan e'tiboran o'n ikki oy mobaynida ozod etiladi.

Soliq nazorati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-son «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga asosan 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab:

tadbirkorlik sub'ektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, yuridik shaxslarning tugatilayotganida, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonunchilik buzilganligi holatlari bo'yicha bergan murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar bundan mustasno; tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi; moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbuzarliklar sodir etgan tadbirkorlik sub'ektlari va ularning xodimlari yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda, insonning sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazilgan holatlar bundan mustasno, ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan, jarimalar va moliyaviy sanksiyalar (penyadan tashqari) qo'llanilishidan ozod etiladilar;

noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni birinchi marta sodir etgan shaxslar huquqbuzarlik aniqlangan kundan e'tiboran bir oy muddatda yetkazilgan zararning o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplagan, tadbirkorlik sub'ekti sifatida ro'yxatdan o'tgan va ruxsat etuvchi zarur

hujjatlarni rasmiylashtirgan taqdirda ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan ozod etiladilar; tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo'llanilmaydi;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etiladigan ishlab chiqarish korxonalariga ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtida amalda bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini (resurs va bojxona to'lovlari bundan mustasno) besh yil mobaynida qo'llash huquqi beriladi; tadbirkorlik sub'ektlari hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida ariza bergan taqdirda davlat boji to'lashdan ozod etiladilar;

tadbirkorlik sub'ektlarining eksport kontraktlarini davlat bojxona xizmati organlarida hisobga qo'yish borasidagi talab, valyuta nazorati organlari tomonidan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi orqali tashqi savdo kontraktlari nazorati va monitoringini saqlab qolish sharti bilan bekor qilinadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 3 noyabrdagi PF-5215-sonli va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag'batlantirish va raqobatdoshligini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2017 yil 15 dekabrda PF-5286-sonli Farmonlarining 1-ilovalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini ko'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 3 noyabrdagi PQ-3351-sonli qarorida nazarda tutilgan tovarlarni eksport qilish bo'yicha kontraktlar bundan mustasno qilinadi; eksport qilinayotgan tovarlarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat ilgari xuddi shunday tovar uchun aynan sertifikat olgan arizachiga bir ish kuni mobaynida beriladi.

Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining 4,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb, hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar quyidagi miqdorlarda sug'urta badallarini to'laydilar²³:

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi - oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda; oilaning boshqa a'zolari (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar bundan mustasno) - oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay;
2. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari - hisobot yilining 1 oktyabrigacha.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolarining sug'urta badallarini to'lash majburiyati oilaviy tadbirkorlik sub'ekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining zimmasiga yuklatiladi.

²³ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 311-modda.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini vaqtincha to'xtatish va soliq hamda sug'urta badal hisoblanishini to'xtatish tartibi

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi arizani va uning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasini olgan, tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradigan organ soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi²⁴.

Faoliyatni tugatish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 27 apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi" PQ-630 son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, jismoniy shaxs faoliyatini ixtiyoriy to'xtatish uning ro'yxatdan o'tkazgan organga taqdim etgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- 1) davlat soliq xizmati organining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risidagi xulosasi. Xulosa davlat soliq xizmati organi

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 373-moddasi

tomonidan tadbirkorlik sub'ekti - jismoniy shaxs murojaat qilgandan keyin ikki ish kunidan kechiktirmay, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarni mavjud bo'lganda esa - ular to'langandan keyin ikki ish kunidan kechiktirmay beriladi;

2) muhr va shtamplar, agar ular mavjud bo'lsa;

3) barcha litsenziyalar (ruxsatnomalar)ning asl nusxalari, agar ular mavjud bo'lsa;

4) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;

5) banklarda hisob raqamlari ochilmaganligi to'g'risidagi xat yoki, agar mavjud bo'lsa, asosiy hisob raqami yopilgani to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi.

Tadbirkorlik sub'ekti sifatida faoliyatining to'xtatilishi jismoniy shaxsni kreditorlar oldidagi uning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

Tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda hujjatsiz ravishda faoliyat yuritilishiga nisbatan soliq idoralari tomonidan ko'riladigan chora

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda 1675-PQ qaroriga muvofiq 2012 yil 1 yanvardan boshlab o'rnatilgan tartibga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organlariga tegishli faoliyat turi bo'yicha bir yil uchun hisoblangan qat'iy belgilangan soliqni undirish huquqi berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2008 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. T.: Adolat, 2014 y.

5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 27 apreldagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi» PQ-630 son qarori

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675 son qarori

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-6 son qarori

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1754-son qarori

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrda «Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llabquvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3351-son qarori

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-3454-son qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lida to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF4725-son farmoni

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrda «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-son farmoni

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 dekabrda «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag'batlantirish va raqobatdoshligini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-5286-son farmoni

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llabquvvatlash chora tadbirlari to'g'risida»gi PF-5242-son farmoni

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 noyabrda «Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish choratadbirlari to'g'risida» PF-5215-son farmoni

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrda «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 252-son qarori

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 fevralda «Chet elda ishlayotgan o'zbekiston respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 46-son qarori

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 iyulda «Jismoniy shaxslarning mehnat stajini elektron hisobga olishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 462-son qarori

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyulda 216son qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs tashkil etmasdan oilaviy

tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom

22. Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 29 yanvardagi 402-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Mehnat daftarchalarini yuritish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma

23. Adliya Vazirligi tomonidan 2009 yil 27 aprelda 1948-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi"gi yo'riqnoma

24. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017.

25. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.

26. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2017.

27. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O'zbekiston, 2017.

28. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: O'zbekiston, 2017.

29. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - Toshkent: Sharq. 2009. -400-b.

30. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Norma. 2009. -183-b.

31. Gadoyev E.F va boshqalar. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. Qo'llanma. - Toshkent: Norma. 2011. -327-b.

32. Gadoyev E.F va boshqalar. Foyda solig'i. Qo'llanma. - Toshkent: Norma. 2011. -407-b.

33.Гадоев Э.Ф. и др. Упрощенная система налогообложения, единый налоговый платеж, единый земельный платеж, фиксированный налог. Ташкент: Норма. 2011. - 251 -с.

34. Гадоев Э.Ф. и др. Налог на доходы физических лиц. Ташкент: Норма. 2011. - 198 -с.

35. Mutalov A., Mutalova D. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot. 2012. -80-b.

36. Xusainov R.R., Isxaqov A.Q., Urmanova D.T., Djurayev X.Z. Moliya va soliqlar II-qism (Soliqlar). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Voris. 2014. -334-b.

37. Temur tuzuklari. - Toshkent: Cho‘lpon, 1991. - 98-b.

38. «Bozor, pul va kredit» jurnali.

39. «Soliq to‘lovchining jurnali».

40. «Soliq solish va buxgalteriya hisobi» jurnali.

41. «Soliq va bojxona xabarleri» moliyaviy-iqtisodiy gazetasi.

42. Internet saytlari: <http://www.soliq.uz> <http://www.mf.uz>
<http://www.gov.uz> <http://www.lex.uz> <http://www.norma.uz>
<http://www.ziynet.uz> <http://www.fmc.uz> www.fo.birdarcha.uz
www.my.gov.uz

Mundarija:

Kirish.....	3
Yakka tartibdagi tadbirkor	3
Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari	4
Yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi	13
Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalari.....	20
Soliq hisoblash tartibi.....	24
Soliq hisobotlari	25
Soliq imtiyozlari.....	28

Soliq nazorati	29
Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari	32
Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini vaqtincha to'xtatish va soliq hamda sug'urta badal hisoblanishini to'xtatish tartibi	33
Faoliyatni tugatish.....	33
Tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda hujjatsiz ravishda faoliyat yuritilishiga nisbatan soliq idoralari tomonidan ko'riladigan chora.....	34
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:	34
Mundarija	38